


O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi
Yuristlar malakasini oshirish markazi

KIBER HUQUQ – HUQUQ SOHASI SIFATIDA



TOSHKENT

UO•K-004:34(5751)

K-40

Kiber huquq – huquq sohasi sifatida: risola / tuzuvchilar R.R.Shakurov, M.M.Vohidov. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazi, 2022. – 27 b.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazi O‘quv va ilmiy-uslubiy kengashi majlisida 2022 yil 16 iyunda muhokama qilingan va chop etishga tavsiya etilgan (17-son bayonnoma).

Taqrizchilar: yuridik fanlari nomzodi, dotsent G.Alimov
yuridik fanlari nomzodi D.Raximov

Mazkur risolada kiber huquq tushunchasi va belgilari, mazkur huquq bilan tartibga solinadigan munosabatlarni huquqiy ta’minlash, ushbu munosabatlarni tartibga soluvchi xalqaro hujjatlar, kiber huquq sohasiga oid mintaqaviy kelishuvlar, kiberxavfsizlik tushunchasi va huquqiy asoslari hamda kibermakondagi huquqbuzarliklar uchun javobgarlik masalalarning ayrim jihatlari yoritilgan.

Oliy yuridik ta’lim o‘quv muassasalari talabalari va kursantlari hamda yuridik sohaga oid malaka oshirish ta’lim muassasalari tinglovchilari uchun mo‘ljallangan.

KIBER HUQUQ TUSHUNCHASI VA BELGILARI

Bugunda, hayotimizning barcha sohalariga kirib kelgan axborot-kommunikasiya texnologiyalari tizimini rivojlantirish, bu sohaga oid xalqaro va mintaqaviy munosabatlarda ishtirok etish hamda mazkur sohani zamonaviy kibertahdidlardan himoya qilishni taqozo etadi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning jadal rivojlanishi, jamiyat faoliyatining keng sohalarida turli kompyuter texnologiyalar bilan ta'minlanadigan axborot xizmatlarining joriy qilinishiga olib keldi. Bu o'z navbatda yangi kiber huquq sohasining paydo bo'lishiga turtki bo'ldi.

Umuman olganda, **kiber huquq sohasining kelib chiqishiga quyidagilar sabab bo'ldi:**

- virtual huquqiy munosabatlar kelib chiqishi;
- AKTni rivojlanishi;
- axborot xavfsizligini ta'minlash zarurati;
- raqamli iqtisodiyotga mavjud ehtiyoj;
- Internetda intellektual mulk huquqini himoya qilish lozimligi.

Bunday yangi munosabatlarning paydo bo'lishi, ularni huquqiy tartibga solishni taqozo etdi. Shu bois, yangi kiber huquq tarmog'i vujudga keldi.

Kiber huquq – axborotlashtirish, axborot resurslari va axborot tizimlaridan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga hamda himoya qilishga qaratilgan huquq sohasidir.

Demak, kiber huquq boshqa huquq sohaları qatorida o'z ifodasini topgan yangi huquq tizimining elementi sifatida qaralishi kerak. Bu o'z navbatida, mazkur huquq tarmog'i bilan tartibga solinadigan munosabatlar, ularning ob'ekti, sub'ektlari hamda sub'ektlarning huquq va majburiyatlarini aniqlashtirishni taqozo etadi.



Kiber huquqning huquqiy tartibga solish predmetiga kibermakonda yuzaga keladigan va turli huquq sohalarining normalari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar majmui yoki yig'indisi kiradi.

Xorijiy yurisprudensiyada kiber huquq tizimida quyidagi uchta munosabatlar guruhi ajratilmoqda:

✓ kiber huquqidagi xususiy huquqiy munosabatlar (*masalan, bitimlar tuzish, elektron to'lovlar*);

✓ kiber huquqidagi ommaviy huquqiy munosabatlar (*masalan, davlat tomonidan tartibga solinadigan masalalar, elektron hukumat*);

✓ kiber huquqidagi tashkiliy-huquqiy munosabatlar (*masalan, huquqbuzarliklarni oldini olish va javobgarlik belgilash, nizolarni hal qilish va boshq.*).

Kiber huquq munosabatlarini tartibga soluvchi huquq manbalari ko'p qirrali bo'lib, turli sohalarni, jumladan, axborotlashtirish, elektron hujjat aylanishi, elektron tijorat va javobgarlik masalalarini tartibga soladi.

Ma'lumki, kiber huquq bilan tartibga solinadigan munosabatlarning aksariyatini, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida yaratilgan virtual muhit (kibermakon)dagi huquqiy munosabatlar tashkil etadi. Bugunda, kibermakon ko'rinishining asosiy qismini ijtimoiy tarmoqlar tashkil etadi.

Kibermakon (ijtimoiy tarmoqlar)dagi munosabatlarga, jumladan:

➤ telegram-botlarni joylashtirish tartibini belgilash (*masalan, ma'lumotlar bilan almashish, xizmatlarni amalga oshirish, ovqat yetkazib berish botlari*);

➤ tashkilotlarning rasmiy sahifalari joylashtirish (*masalan, tashkilot haqidagi ma'lumotlar, joylashgan joyi, xizmat ko'rsatish vaqti*);

➤ axborot xavfsizligini ta'minlash kiradi.

Mazkur huquq sohasining xususiyati shundaki, u bilan tartibga solinadigan munosabatlar bevosita yoki bilvosita kibermakonda amalga oshiriladi. Shu bois, **kiber huquq bilan tartibga solinadigan munosabatlarga asoslanib, kiber huquqning quyidagi ob'ektlarini ajratib ko'rsatish mumkin:**

❖ *virtual ob'ektlar* - virtual makondan tashqarida mavjud bo'lgan an'anaviy ijtimoiy munosabatlar.

❖ *axborot, axborot resurslari* - axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining asosi bo'lgan ma'lumotlar, elektron shakldagi ma'lumotlar;

❖ *kiber fazilatlar* - kiber maydonda paydo bo'ladigan ob'ektlar (kriptokassetalar, blokcheyn);

Kiber huquq bilan tartibga solinadigan munosabatlar sub'ektlari sifatida quyidagilar ajratiladi:

1) jismoniy shaxslar (foydalanuvchilar, provayderlar);

2) yuridik shaxslar (foydalanuvchilar, provayderlar);

3) davlat.

Bunda, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlariga, ijtimoiy tarmoqlarni, jumladan, virtual platforma, axborot almashish, provayder (egasi) sifatida ishtirok etish kiradi.

Kiber huquq munosabatlarining sub'ekti sifatida davlat nomidan faoliyat yuritayotgan O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining o'rni ahamiyatlidir.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi axborotlashtirish, "elektron hukumat", "elektron tijorat", "elektron raqamli imzo"lardan foydalanish, telekommunikatsiyalar va pochta aloqasi sohasida, O'zbekiston Respublikasi telekommunikatsiya tarmoqlarini boshqarish tizimining shakllanishi va samarali ishlashini ta'minlash, xorijiy ommaviy axborot vositalarining televidenie va radio mahsulotlarini O'zbekiston Respublikasi hududida tarqatish sohasida, radiochastotalarni belgilovchi, telekommunikatsiya sohasidagi litsenziyalovchi organ sifatida faoliyat yuritadi.

KIBER HUQUQ MUNOSABATLARINING HUQUQIY TA'MINLANISHI

Kiber huquqning muhim vazifalari qatorida, mazkur sohadagi munosabatlarni huquqiy tartibga solish va uning himoyasini ta'minlashdir.

Kiber huquqni ta'minlash va ushbu sohada kelib chiqadigan munosabatlarda jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va manfaatlarini yuqori sifatli ta'minlash hamda huquqiy himoya qilish har qanday davlatning muhim vazifalaridandir.



Haqiqatdan ham har qanday ma'lumot u yoki bu ma'noda axborot-kommunikatsiya tizimi foydalanuvchilarining manfaati bilan bog'liq. Shu bois, mamlakatimizda ohirgi yillarda O'zbekistonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish va rivojlantirishga qaratilgan qabul qilingan qator hujjatlar, mazkur sohaning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Kibermakon (ijtimoiy tarmoqlar)ni tartibga solishda jumladan, quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar muhim ro'l o'ynaydi:

- ✓ O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi;

✓ O‘zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to‘g‘risida"gi Qonuni;
✓ O‘zbekiston Respublikasining "Elektron hukumat to‘g‘risida"gi Qonuni;
✓ O‘zbekiston Respublikasining "Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida"gi Qonuni;

✓ O‘zbekiston Respublikasining “To‘lovlar va to‘lov tizimlari to‘g‘risida”gi Qonuni;

✓ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi to‘g‘risidagi yagona nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori;

✓ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maxsus elektron tizim orqali ruxsat etish xususiyatiga ega ayrim hujjatlarni berish tartib-taomillari to‘g‘risidagi yagona nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori va boshq.

Xususan, ***O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi*** Umumiy qismining 8-bobiga binoan ma‘lumotlar kiber-huquq ob‘ekti asosi sifatida nomoddiy foyda toifasiga kirishi haqida qoida keltirilgan. Unga ko‘ra, rasmiy va tijorat sirini tashkil etuvchi ma‘lumotni himoya qilish, agar ma‘lumot uchinchi shaxslarga noma‘lum bo‘lganligi sababli haqiqiy yoki potensial tijorat qiymatiga ega bo‘lsa, unga qonuniy asosda erkin kirish imkoni bo‘lmasligi va ma‘lumot egasi uning maxfiyligini himoya qilish choralarini ko‘rishga haqli ekanligi belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasining 2003-yil 11-dekabrda 560–II-son “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonunning maqsadi axborotlashtirish, axborot resurslari va axborot tizimlaridan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat bo‘lib, axborotlashtirish, axborot resurslari yoki axborot tizimlarining egasi, axborot texnologiyalari va axborot tizimi kabi muhim jihatlarni belgilab berishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatdir.

O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 9-dekabrda O‘RQ-395-son “Elektron hukumat to‘g‘risida”gi Qonuni davlatning tadbirkorlik va jamiyat bilan o‘zaro aloqadorlik masalalari oldida turgan asosiy vazifalarini belgilab berdi. Xususan, qonunga muvofiq, biznes va davlat hokimiyati organlari o‘rtasida aloqa kanallarini yaratish - statistik hisobotlarni taqdim etish, bojxona rasmiylashtiruvi, litsenziyalar, ruxsatnomalar, sertifikatlar berish, shuningdek davlat idoralaridan ma‘lumot olish jarayonida elektron hujjat aylanishi, elektron tijorat tizimlaridan foydalanish, elektron platformalar orqali xaridlarni amalga oshirish, avtomatlashtirilgan buxgalteriya tizimlarini joriy etish, kommunal

xizmatlarni monitoring qilish va to‘lash, naqdsiz elektron to‘lov tizimlarini rivojlantirish va boshqalar uchun biznes imkoniyatlarini kengaytirish, aholi bilan aloqa kanallarini yaratish - "Bir oyna" tamoyilini, virtual qabulxonalarni va ijtimoiy muloqot uchun boshqa platformalarni joriy etish, o‘zlariga yuklatilgan funksiyalar doirasida davlat organlarining ma’lumotlar bazalarini shakllantirish, masalan, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali va elektron davlat xizmatlarining Yagona reestrini yuritish kabi innovatsion texnologiyalarni joriy etish mexanizmlari yaratildi.

O‘zbekiston Respublikasining 2004-yil 29-apreldagi 611-II-son "Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida"gi Qonuni bilan elektron hujjat aylanishi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan bo‘lib, jumladan, u elektron tizimni axborot tizimi orqali yuborish va qabul qilish jarayonlari majmuidir.

Ushbu qonundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-avgustdagi PQ-3245-son "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida loyihalarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Farmoni davlat axborot tizimlarini yaratish va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yagona integratorni yaratishga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 1-noyabrdagi O‘RQ-578-son «To‘lovlar va to‘lov tizimlari to‘g‘risida»gi Qonuni elektron to‘lov vositalari, masofaviy xizmat ko‘rsatish tizimidan foydalanish, elektron pullar tizimida to‘lov vositasidan foydalanish kabi munosabatlarni tartibga soladi.

Faoliyatning litsenziyalanadigan turini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo‘lgan yuridik yoki jismoniy shaxslar uchun O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari muhim ro‘l o‘ynaydi. Masalan, ***O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi 80-son «Maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi to‘g‘risidagi yagona nizomni tasdiqlash haqida»gi qarori*** bilan maxsus elektron tizim orqali faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi joriy etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 22-fevraldagi 86-son "Maxsus elektron tizim orqali ruxsat etish xususiyatiga ega ayrim hujjatlarni berish tartib-taomillari to‘g‘risidagi yagona nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori bilan tasdiqlangan Nizomga muvofiq, maxsus elektron tizimi ("Litsenziya" axborot tizimi) orqali ruxsat etish xususiyatiga ega ayrim hujjatlarni, jumladan, litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish

tartib-taomillari bilan barcha jarayonlarni qamrab olgan, idoralararo elektron o‘zaro hamkorlik qilish imkoniyatiga ega bo‘lgan tizim belgilandi.

Yuqoridagi me‘yoriy hujjatlar misolida shuni ko‘rish mumkinki, davlat jamiyatning barcha jabhalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini faol tatbiq etish uchun tashabbusni to‘liq o‘z zimmasiga oldi.

KIBER HUQUQ MUNOSABATLARINI TARTIBGA SOLUVCHI XALQARO HUJJATLAR

Bugungi kunda axborotlashtirish, axborot resurslari va axborot-telekommunikatsiya texnologiyalari tizimlaridan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish hamda ximoya qilishda kiber huquq tarmog‘i muhim o‘rin tutmoqda.

Mazkur munosabatlarni tartibga solishda, shu jumladan, xalqaro normativ-huquqiy hujjatlar alohida ahamiyatga egadir.

Kiber huquq bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish sohasida yagona xalqaro hujjat mavjud emas.

Shu bilan birga, xalqaro darajadagi huquqiy hujjatlarda axborot (kiber) xavfsizligiga alohida e‘tibor qaratilgan.



Shartli ravishda, kiber huquq sohasiga oid xalqaro huquqiy hujjatlarni quyidagilarga ajratish mumkin:

- 1) BMT hujjatlari;
- 2) xalqaro tashkilotlarning hujjatlari;
- 3) umumjahon uchrashuv, konferensiya, sammitlar natijalari bo‘yicha hujjatlar.

Jumladan, **Birlashgan Millatlar Tashkilotining aktlari haqida gapiradigan bo‘lsak, quyidagi turlarni ajratib ko‘rsatish mumkin:**

- ✓ 1999-yil 4-yanvardagi “Xalqaro xavfsizlik sharoitida axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasidagi yutuqlar” rezolyusiyasi;
- ✓ 1999-yil 23-dekabrda “Xalqaro xavfsizlik sharoitida axborotlashtirish va telekommunikatsiya sohasidagi yutuqlar” rezolyusiyasi;

✓ 2002-yil 7-noyabrdagi "Xalqaro xavfsizlik sharoitida axborotlashtirish va telekommunikasiyalar sohasidagi yutuqlar" haqidagi 1-qo‘mitaning Ma’ruza rezolyusiyasi;

✓ 2013-yil 16-dekabrda
“Raqamli asrda shaxsiy daxlsizlik huquqi” hisoboti rezolyusiyasi;

✓ Bosh Assambleyaning 2015-yil 16-dekabrda
“Axborot jamiyati bo‘yicha Butunjahon sammiti natijalarini amalga oshirishni



umumiy ko‘rib chiqish bo‘yicha Bosh Assambleyaning Oliy darajadagi majlisining yakuniy hujjati” rezolyusiyasi va boshq.

Ushbu va boshqa ba’zi rezolyusiyalarning umumiy tahlili xalqaro huquqiy hamkorlikning quyidagi vektorlarini ko‘rsatadi:

➤ axborot xavfsizligini umumiy baholash, konseptual apparatni ishlab chiqish;

➤ axborot jamiyatini shakllantirish;

➤ global axborot va telekommunikasiya tizimlari xavfsizligini mustahkamlash;

➤ ushbu sohani tartibga solishda xalqaro huquqning ustuvorligi.

Xalqaro tashkilotlarning aktlarini tahlil qilish ular asta-sekin bu munosabatlarni batafsil tartibga solishga yaqinlashib kelayotganini aytishga imkon beradi.

Xalqaro tashkilotlarning hujjatlari, xususan:

❖ Yevropa Kengashining “Kiberjinoyatchilik to‘g‘risidagi Konvensiya” (Budapesht, 2001-yil 23-noyabr);

❖ Shanxay hamkorlik tashkilotiga (ShHT) a‘zo davlatlar hukumatlari o‘rtasida 2009-yil 16-iyundagi “Xalqaro axborot xavfsizligini ta‘minlash sohasida hamkorlik to‘g‘risida”gi Bitimi.

Kiberjinoyatchilik to‘g‘risidagi 2001-yil 23-noyabrdagi Budapesht Konvensiyasi:

✓ kompyuter axboroti sohasida milliy miqyosda amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni qayd etdi;

✓ kiberjinoyatlarning turlari va ularni sodir etganlik uchun jazo turlarini belgilab berdi;

✓ tezkor-qidiruv harakatlarining ayrim protsessual xususiyatlarini, tergov jarayonida ma'lumotlarning saqlanishini aniqladi;

✓ bu boradagi xalqaro hamkorlik va o'zaro yordamning umumiy tamoyillarini taklif qildi.

Xususan, **Budapesht konvensiyasida qo'yidagi jinoyatlar turlari ajratilmoqda:**

➤ Kompyuter ma'lumotlari va tizimlarining maxfiyligi, yaxlitligi va mavjudligiga qarshi jinoyatlar;

➤ Kompyuter bilan bog'liq huquqbuzarliklar;

➤ Ma'lumotlar tarkibidagi huquqbuzarliklar;

➤ Mualliflik huquqi va turdosh huquqlarning buzilishi bilan bog'liq huquqbuzarliklar.

Budapesht Konvensiyasi (tomonlar) ishtirokchilarining har biri ushbu hujjat qoidalarida ko'zda tutilgan vakolatlar va tartiblarni belgilash uchun zarur bo'lgan milliy qonunchilikni ishlab chiqadi va boshqa choralarni ko'radi deb, tavsiya etgan.

Ushbu xalqaro hujjatda, Tomonlarning Konvensiya tartiblarini o'rnatishi, mazkur sohaga oid shartlar va kafolatlar asosida amalga oshirishi, inson huquqlari va erkinliklari, shu jumladan majburiyatlardan kelib chiqadigan huquqlarni yetarli darajada himoya qilishni ta'minlaydi, deb ta'kidlangan.

Xalqaro kiberhuquqning manbalari darajasida umumjahon uchrashuvi aktlari ham ajralib turadi. Xususan, **kiber huquq sohasiga oid umumjahon yig'ilish natijalari quyidagi hujjatlarda aks ettirilgan:**

✓ 2000 yil 21 iyuldagi Okinava Xartiyasi;

✓ 2005 yil 15 noyabrdagi Tunis dasturi va boshq. Jumladan, **2000 yil 21 iyulda qabul qilingan Okinava xartiyasi quyidagi yo'nalishlar bo'yicha axborot jamiyatining bosqichma-bosqich ko'rinishini taklif qiladi:**

➤ mehnat bozorlariga moslashish, inson resurslarini rivojlantirish va ijtimoiy hamjihatlikni ta'minlash chora-tadbirlari bilan to'ldiriladigan samaradorlik, raqobat va innovasiyalarga ochiqlik muhitini yaratish bo'yicha iqtisodiy va tarkibiy islohotlarni amalga oshirish;

➤ biznes va iste'molchilar tomonidan yanada aniqroq rejalashtirish va yangi axborot texnologiyalaridan foydalanishga yordam beruvchi oqilona makroiqtisodiy boshqaruv;

➤ axborot tarmoqlarini rivojlantirish;

➤ inson resurslarini rivojlantirish (“axborot jamiyati” tushunchasi haqida bilimlarni egallash sohasida);

➤ davlat sektorida AKTdan faol foydalanish va barcha fuqarolar uchun hokimiyatdan foydalanish imkoniyatini oshirish uchun zarur bo‘lgan real vaqt xizmatlarini rag‘batlantirish.

Mazkur Okinava xartiya hujjati, shuningdek, litsenziyalangan dasturiy ta‘minotdan foydalanishning transchegaraviy elektron tijoratni rivojlantirishning (uni soliqqa tortish) muhim sharti, kriptografiyani o‘z ichiga oladi.

Amaliyotni o‘rganish, jamiyatni axborotlashtirishning Okinava xartiyasida qayd etilgan samarali yo‘nalishlari, bugungi kunda mamlakatimizda joriy etilib bo‘lganligidan dalolat beradi.

Tunis dasturi (2005 yil 15 noyabr) davlatlar o‘rtasidagi hamkorlik nuqtalari va axborot jamiyati sohasidagi faoliyat sohalari haqida tushuncha beradi. Mazkur hujjatning asosiy vazifa sifatida – "raqamli bo‘linish"ni bartaraf etish belgilangan.

Hammasi bo‘lib, **Tunis dasturi bilan hamkorlikning quyidagi to‘rtta yo‘nalish belgilandi:**

1) rivojlanayotgan mamlakatlarda texnik salohiyatni rivojlantirishga ko‘maklashish;

2) AKT ta‘sirini baholash;

3) turli mamlakatlardagi raqamli tafovutni miqdoriy baholash uchun aniq ko‘rsatkichlarni ishlab chiqish;

4) AKT sohasida umumiy ko‘rsatkichlar majmuasini ishlab chiqish, miqdoriy ko‘rsatkichlarni oshirish.

Xalqaro uchrashuvlarda qabul qilingan ushbu va boshqa ba‘zi hujjatlarning aksariyat mazmuni, texnologik fond bilan ta‘minlanadigan, ushbu sohaning kelajagi haqidagi mulohaza yoki qarashlardan iboratdir.

KIBER HUQUQ SOHASIGA OID MINTAQAVIY KELISHUVLAR

Axborot-kommunikasiya texnologiyalar sohasining samarali rivojlanishida, xalqaro mintaqaviy hamkorlik ham ahamiyatlidir.

AKT sohasidagi mintaqaviy munosabatlarni tartibga solishda, O‘zbekiston a‘zolaridan biri bo‘lgan Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (SHHT) hamda Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) tomonidan qabul qilingan hujjatlar muhim o‘rin tutadi.

Shanxay Hamkorlik Tashkilotining 2009-yil 16-iyundagi (2021-yil 5-yanvarda kuchga kirgan) **“Xalqaro axborot (kiber) xavfsizligini ta’minlash sohasida hamkorlik to’g’risidagi kelishuvi”** AKT munosabatlarini tartibga solishda samarali mexanizm sifatida tan olindi (Rossiya, Yekaterinburg).

Mazkur SHHTning kelishuvda, xususan, quyidagi masalalar nazarda tutilgan:

- ❖ asosiy tushunchalar (1-modda);
- ❖ xalqaro axborot xavfsizligini ta’minlash sohasidagi asosiy tahdidlar (2-modda);
- ❖ hamkorlikning asosiy yo’nalishlari (3-modda);
- ❖ hamkorlikning umumiy prinsiplari (4-modda);
- ❖ hamkorlikning asosiy shakllari va mexanizmlari (5-modda);
- ❖ axborotning himoyasi (6-modda);
- ❖ moliyalashtirish (7-modda);
- ❖ boshqa xalqaro shartnomalarga munosabat (8-modda);
- ❖ nizolarni hal qilish (9-modda);
- ❖ ishlash tili (10-modda);
- ❖ depozitariy (11-modda);
- ❖ yakuniy qoidalar (12-modda).

Xususan, Shanxay hamkorlik tashkilotining mazkur kelishuvi bilan 1-ilovaga muvofiq keltirilgan “Xalqaro axborot xavfsizligini ta’minlash sohasida qo’llaniladigan asosiy atamalar ro‘yxati”da – “axborot xavfsizligi”, “axborotli urush”, “axborotli qurol”, “axborot hududi”, “axborot resurslari” va boshqa atamalarga tushunchalar yoritilgan.

Mazkur asosiy atamalar ro‘yxati, xalqaro axborot xavfsizligini ta’minlash sohasiga oid munosabatlarni tartibga solishda nihoyatda qulaydir.

SHHT kelishuvi bilan 2-ilovaga (“Xalqaro axborot xavfsizligi sohasidagi tahdidlarning

asosiy turlari, ularning manbalari va belgilari ro‘yxati”)ga muvofiq, **xalqaro axborot xavfsizligi sohasidagi tahdidlar qatoriga quyidagilar kiritilgan:**

1) axborot qurollarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish, axborot urushini tayyorlash va o‘tkazish;



- 2) axborot terrorizmi;
- 3) axborot jinoyati;
- 4) axborot makonidagi ustun mavqedan boshqa davlatlarning manfaatlari va xavfsizligiga ziyon yetkazadigan holda foydalanish;
- 5) boshqa davlatlarning ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy tizimlariga, ma'naviy-axloqiy va madaniy muhitiga zarar yetkazuvchi axborotni tarqatish;
- 6) tabiiy va (yoki) texnogen xususiyatga ega global va milliy axborot infratuzilmalarining xavfsiz, barqaror ishlashiga tahdidlar.

Hamkorlikning asosiy yo'nalishlariga, mazkur SHHT kelishuvga ko'ra, jumladan, quyidagilar belgilangan:

- 1) xalqaro axborot xavfsizligini ta'minlash sohasida zarur qo'shma chora-tadbirlarni belgilash, muvofiqlashtirish va amalga oshirish;
- 2) ushbu sohada yuzaga keladigan tahdidlarga monitoring va birgalikda javob berish tizimini yaratish;
- 3) mudofaa qobiliyatiga, milliy va jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi axborot qurollarining tarqalishi va qo'llanilishini cheklash sohasida xalqaro huquq normalarini ishlab chiqish bo'yicha qo'shma chora-tadbirlarni ishlab chiqish;
- 4) axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan terroristik maqsadlarda foydalanish tahdidlariga qarshi kurashish;
- 5) axborot jinoyatlariga qarshi kurashish;
- 6) ushbu Bitim maqsadlari uchun zarur bo'lgan axborot xavfsizligi sohasida ekspertiza, tadqiqotlar va baholashni o'tkazish;
- 7) global Internet tarmog'ining xavfsiz, barqaror ishlashi va boshqaruvini xalqarolashtirishga ko'maklashish;
- 8) Tomonlar davlatlarining o'ta muhim tuzilmalarining axborot xavfsizligini ta'minlash va boshq.

Mustaqil davlatlar hamdustligi davlatlari-ishtirokchilari tomonidan 2018 yil 28 sentyabr kuni *“Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga (MDH) a'zo davlatlar o'rtasida axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha hamkorlik to'g'risida kelishuv”* imzolandi (Tojikiston, Dushanbe).

MDH davlatlarining (Tomonlar) ushbu kelishuvi axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarga qarshi samarali kurashni ta'minlash maqsadida, axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashda tomonlarning kelishilgan harakatlari dolzarb zarurat ekanligiga ishonch hosil qilgan holda, axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashda Tomonlar huquqni

muhofaza qilish organlari o'rtasidagi hamkorlikning huquqiy asoslarini yaratishga intilishga qaratiladi. **Mazkur Kelishuv jami o'n sakkiz moddadan iborat bo'lib, ularda quyidagilar keltirilgan:**

- ❖ asosiy atamalar (1-modda);
- ❖ umumiy qoidalar (2-modda);
- ❖ jinoiy qilmishlar (3-modda);
- ❖ vakolatli organlar (4-modda);
- ❖ hamkorlikning shakllari (5-modda);
- ❖ yordam ko'rsatish haqida so'rov (6-modda);
- ❖ so'rovning ijrosi (7-modda);
- ❖ axborotning konfidensialligi (8-modda);
- ❖ so'rov ijrosi natijalaridan foydalanish (9-modda);
- ❖ ma'lumotni uchinchi tomonga o'tkazish (10-modda);
- ❖ so'rovni bajarishni rad etish (11-modda);
- ❖ xarajatlar (12-modda);
- ❖ boshqa xalqaro shartnomalar bilan munosabatlar (13-modda);
- ❖ nizolarni hal qilish (14-modda);
- ❖ o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish (15-modda);
- ❖ qo'shilish (16-modda);
- ❖ kuchga kirishi (17-modda);
- ❖ amal qilish muddati (18-modda).

Xususan, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga (MDH) a'zo davlatlar o'rtasida axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha hamkorlik to'g'risida kelishuvida, jumladan quyidagi asosiy atamalardan foydalanilgan: "zararli dastur", "axborot texnologiyalari", "axborot tizimi", "kompyuter tizimi", "kompyuter axboroti", "ma'lumotlarga ruxsatsiz kirish". Masalan, ***ma'lumotlarga ruxsatsiz kirishga*** – himoyalangan axborotga uning egasi, egasi va (yoki) tomonlarning qonun hujjatlarida belgilangan huquqlar yoki qoidalarni buzgan holda kirish, deb tushuncha berilgan.

Mazkur kelishuvga ko'ra, jumladan, quyidagilar ***axborot texnologiyalari sohasidagi jinoiy qilmishlar*** deb tan olinadi:

- a) axborotni yo'q qilish, bloklash, o'zgartirish yoki nusxalash, qonun bilan himoyalangan kompyuter ma'lumotlariga ruxsatsiz kirish orqali axborot (kompyuter) tizimini buzish;
- b) zararli dasturlarni yaratish, ulardan foydalanish yoki tarqatish;

v) kompyuter tizimiga kirish huquqiga ega bo'lgan shaxs tomonidan kompyuter tizimidan foydalanish qoidalarini buzish, natijada qonun bilan qo'riqlanadigan kompyuter ma'lumotlarining yo'q qilinishi, bloklanishi yoki o'zgartirilishi, agar bu harakat jiddiy zarar yoki og'ir oqibatlariga olib kelgan bo'lsa;

d) kompyuter tizimida qayta ishlangan, mashina tashuvchilarida saqlanadigan yoki ma'lumotlar uzatish tarmoqlari orqali uzatiladigan ma'lumotlarni o'zgartirish yoki kompyuter tizimiga noto'g'ri ma'lumotlarni kiritish yoki qonun bilan himoyalangan kompyuter ma'lumotlariga ruxsatsiz kirish bilan bog'liq bo'lgan mulkni o'g'irlash;

e) "Internet" axborot-telekommunikatsiya tarmog'i yoki boshqa elektr aloqa kanallari orqali voyaga yetmagan shaxs tasviri bilan pornografik materiallar yoki pornografik xususiyatdagi narsalarni tarqatish;

g) mualliflik huquqi ob'ektlari bo'lgan kompyuter tizimlari va ma'lumotlar bazalari uchun dasturlardan noqonuniy foydalanish, shuningdek, agar bu qilmish katta zarar yetkazgan bo'lsa, mualliflik huquqini o'zlashtirib olish;

z) "Internet" axborot-telekommunikatsiya tarmog'i yoki boshqa elektr aloqa kanallaridan foydalangan holda, belgilangan tartibda ekstremistik deb e'tirof etilgan yoki terrorchilik faoliyatini amalga oshirishga yoki terrorizmni oqlashga chaqiriqlarni o'z ichiga olgan materiallarni tarqatish.

MDHning 2018 yil 28 sentyabrdagi kelishuvida, hamkorlikning asosiy shakllari qatorida, jumladan, quyidagilar belgilangan:

a) axborot almashinuvi, shu jumladan:

axborot texnologiyalari sohasida jinoyatlarni tayyorlaganligi yoki sodir etganligi hamda ularga aloqador jismoniy va yuridik shaxslar to'g'risida;

ushbu sohadagi jinoyatlarning oldini olish, aniqlash, ularga chek qo'yish, fosh etish va tergov qilish shakllari va usullari to'g'risida;

axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarni sodir etish yo'llari to'g'risida;

axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarning oldini olish, aniqlash, ularga chek qo'yish, fosh etish va tergov qilishni tartibga soluvchi milliy qonunchiligi va xalqaro shartnomalari to'g'risida;

b) so'ralayotgan Tomon fuqarosiga nisbatan yoki so'ralayotgan Tomon hududida sodir etilgan jinoyatning oldini olish, aniqlash, bostirish, fosh etish va tergov qilishga yordam berishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni olishga yordam

berish to'g'risidagi so'rovlarni bajarish, tezkor qidiruv ishlarini olib borish faoliyat;

v) axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarning oldini olish, aniqlash, ularga chek qo'yish, fosh etish va tergov qilish bo'yicha kelishilgan tadbirlar va operatsiyalarni rejalashtirish va o'tkazish;

g) kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirishda, shu jumladan mutaxassislarni stajirovkadan o'tkazish, konferensiyalar, seminarlar va malaka oshirish kurslarini tashkil etish orqali ko'maklashish;

d) axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarning oldini olish, aniqlash, ularga chek qo'yish, fosh etish va tergov qilish vazifalarining bajarilishini ta'minlaydigan axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlarni yaratish;

e) nashrlar va ilmiy tadqiqotlar natijalarini almashish, shuningdek axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashishda tomonlarni qiziqtirgan masalalar bo'yicha qo'shma ilmiy tadqiqotlar olib borish;

j) axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar, ilmiy-texnikaviy adabiyotlar almashinuvi;

z) o'zaro hamkorlik va tajriba almashish doirasida axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarning oldini olish, aniqlash, ularga chek qo'yish, fosh etish va tergov qilishda foydalaniladigan dasturiy mahsulotlar va yechimlar bilan almashish;

i) kompyuter tizimlarida saqlanadigan ma'lumotlarni zudlik bilan saqlash bo'yicha so'rovni bajarish;

k) o'zaro maqbul bo'lgan boshqa shakllar.



Kiber huquq sohasiga oid mintaqaviy munosabatlarning samarali bo'lishida, yuqorida ta'kidlanganidek, xalqaro (umumjahon) uchrashuv, konferensiya va sammit natijalari bo'yicha ishlab chiqilgan hujjatlar ham ahamiyatlidir.

Bunday uchrashuvlar qatoriga, jumladan, 2015-yilning 20, 21-may kunlari Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining ko'magida mamlakatimiz poytaxti Toshkentda "Kiberolam va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasida xavfsizlik" mavzusida tashkil etilgan va o'tkazilgan seminarni, 2021-yilning 29 iyun kuni Toshkent shahrida O'zbekiston Prezidenti huzuridagi

Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti tomonidan Axborot texnologiyalari va kommunikasiyalarini rivojlantirish vazirligi hamda MDH Ijroiya qo‘mitasi ko‘magida tashkil etilgan va o‘tkazilgan Axborot xavfsizligi bo‘yicha MDH xalqaro ekspert forumini va boshqa xalqaro uchrashuvlarni kiritish mumkin.

Mazkur va shunga o‘xshash tadbirlar yakuniga ko‘ra, axborot xavfsizligi sohasidagi hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslari va institutsional mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalarni o‘z ichiga olgan hujjatlar qabul qilinadi. Binobarin, AKT sohasiga oid ko‘p qirrali moliyaviy va texnik hamkorlikni har tomonlama kengaytirishda mamlakatimiz hukumati va xorijiy kompaniyalarning vakolatli mansabdor shaxslar bilan uchrashuvlar ham samaralidir. Bunday uchrashuvga misol tariqasida, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari - investitsiyalar va tashqi savdo vaziri 2021-yilning 16-dekabr kuni “KOICA” Koreya xalqaro hamkorlik agentligi Prezidenti Son Xyuk Sang bilan uchrashuvni ta’kidlash joizdir.

Qayd etilishicha, mazkur uchrashuvda, tomonlar Koreyaning “KOICA” xalqaro hamkorlik agentligi bilan o‘zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirishni, maktabgacha va kasb-hunar ta’limi, raqamlashtirish, kimyo, tadbirkorlikni rivojlantirish, ekologiya, ko‘kalamzorlashtirish va cho‘llanishga qarshi kurashish, shuningdek sog‘liqni saqlash sohalarida yangi grant loyihalarini amalga oshirishni ko‘zda tutuvchi 2022-2024-yillarga mo‘ljallangan Hamkorlik dasturi kelishib olindi.

KIBERXAVFSIZLIK TUSHUNCHASI VA HUQUQIY ASOSLARI

Hozirgi globallashtirish jarayonida virtual muhitda axborotni yig‘ish, tarqatish, olish va ayirboshlash, shuningdek, xizmatlarni ko‘rsatish borasidagi faoliyatining asosiy qismi Internet global tarmog‘idan foydalangan holda amalga oshirilmoqda.



Bu o‘z navbatida, bunday axborotni noqonuniy egallash, foydalanish, ularga zarar etkazish va boshqa huquqbuzarliklarni sodir etishga imkon yaratadi.

Nazariya va amaliyotda, kibermakondaги munosabatlarni

muhofaza qilishga nisbatan “kiberxavfsizlik” atamasi kabi tushuncha qo‘llanilib kelmoqda.

Kiberxavfsizlikni ta’minlash, har qanday mamlakatda muhim davlat vazifasi hisoblanadi. Shu bois, bu sohadagi yagona davlatning siyosatini O‘zbekiston Prezidenti tomonidan belgilanadi.

O‘zbekistonda kiberxavfsizlik davlat tomonidan ta’minlanadi. Xususan, ***kiberxavfsizlik quyidagilar orqali ta’minlanadi:***

➤ kiberxavfsizlikka tahdidlarga qarshi turish uchun iqtisodiy, siyosiy, tashkiliy va boshqa xarakterdagi tadbirlarni amalga oshirish;

➤ O‘zbekiston Respublikasining jahon axborot makoniga va zamonaviy telekommunikasiya tizimlariga qo‘shilishi;

➤ konstitutsiyaviy tuzumni zo‘ravonlik bilan o‘zgartirish, O‘zbekiston Respublikasining hududiy yaxlitligini, suverenitetini buzish, hokimiyatni egallab olish yoki hokimiyatdan qonuniy ravishda saylangan yoki tayinlangan hokimiyat vakillarini olib tashlash va davlat tuzumiga boshqa tajovuzlarni amalga oshirishga qaratilgan da’vatlarni o‘z ichiga olgan ma’lumotlarning tarqalishidan himoya qilish;

➤ ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni qo‘zg‘atishga qaratilgan urush va zo‘ravonlik, shafqasizlik, terrorizm va diniy ekstremizm g‘oyalarini targ‘ib qiluvchi ma’lumotlarni tarqatishga qarshi kurashish.

Mazkur masalaning muhimligi sababli, O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikasiyalarini rivojlantirish vazirligi huzuridagi ***Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikasiya texnologiyalari sohasida nazorat bo‘yicha davlat inspeksiyasi*** tashkil etildi.

Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikasiya tenologiyalari sohasida nazorat bo‘yicha davlat inspeksiyasi vazifalariga, jumladan:

✓ aloqa, axborotlashtirish va telekommunikasiya texnologiyalari sohasida qonun hujjatlari, normativ hujjatlar va davlat standartlari talablariga rioya qilinishi;

✓ EHM uchun dasturlar tarqatilishida iste’molchilar huquqlarini himoya qilish choralarini ta’minlash;

✓ tashkilot va idoralarda «Elektron hukumat» tizimida infratuzilmani rivojlantirish va axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan samarali foydalanilishi;

✓ ish va boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish;

✓ integrallashgan axborot tizimlarini, ma'lumotlar uzatish va almashishning idoralararo tarmoqlarini joriy etish va ulardan foydalanish;

✓ davlat axborot resurslari integrasiyasi, shu jumladan, elektron davlat xizmatlari ko'rsatish samaradorligi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish kiradi.

Axborot texnologiyalari yordamida yaratilgan virtual muhitda (kibermakon) sodir etilayotgan huquqbuzarliklarning ko'payib borishi, ularni sodir etish orqali jamoat xavfsizligiga katta zarar yetkazilishi munosabati bilan, shuningdek, kibermakonda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining tashqi va ichki tahdidlardan himoya qilishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar qatorida, O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 15-apreldagi O'RQ-764-son "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi Qonuni muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasining "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi Qonunning maqsadi kiberxavfsizlik sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat bo'lib, unda kiberxavfsizlikka oid asosiy tushanchalar, kiberxavfsizlikni ta'minlashning asosiy prinsiplari, mazkur sohaning davlat tomonidan tartibga solish, davlat organlari va tashkilotlarining kiberxavfsizlikni ta'minlash borasidagi huquq va majburiyatlari, kiberxavfsizlikni ta'minlash masalalari, kiberxavfsizlik hodisalarini tekshirish va ular bo'yicha choralar ko'rish, muhim axborot infratuzilmasi ob'ektlari va ularning kiberxavfsizligini ta'minlashning asosiy yo'nalishlari, kiberxavfsizlik sohasini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish masalalari nazarda tutilgan.

Xususan, mazkur qonunga asosan, kiberxavfsizlik sohasidagi vakolatli davlat organi etib – O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati belgilangan.

Ushbu qonunga muvofiq, **O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati kiberxavfsizlik sohasidagi vakolatlariga qo'yidagilar kiradi:**

❖ kiberxavfsizlik sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni va davlat dasturlarini ishlab chiqish;

❖ kiberxavfsizlik to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarining ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

❖ kiberxavfsizlik hodisalari yuzasidan tezkor-qidiruv tadbirlarini, tergovga qadar tekshiruvlarni va tergov harakatlarini amalga oshirish;

❖ kiberxavfsizlik hodisalarining oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etish hamda ularga nisbatan tegishli chora-tadbirlarni ko'rish;

❖ kiberxavfsizlik sohasida kadrlar tayyorlash bo'yicha faoliyatni amalga oshirish va boshq.

Mazkur vakolatli davlat organining qonuniy talablarini (ko'rsatmalarini) bajarish majburiydir.

Kibermakondagi munosabatlar muxofazasini ta'minlash nafaqat ta'kidlab o'tilgan va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan, balki maxsus texnik vositalar va kriptografik algoritmlar hamda protokollar negizida yaratilgan elektron dasturlar, apparat-dasturiy va apparat-texnik vositalarini qo'llash bilan ham samarali amalga oshirilishi mumkin.

Shu bilan birga, kiberjinoyslarning oldini olishda, shuningdek, aholining raqamli savodxonligi darajasini oshirish va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishning individual usullarini targ'ib qilish ahamiyat kasb etadi.

KIBERMAKONDAGI HUQUQBUZARLIKLAR UCHUN JAVOBGARLIK

Milliy qonunchilik bilan tartibga solingan, kibermakondagi munosabatlarning xavfsizligi, shuningdek, amaldagi O'zbekiston Respublikasining jinoyat va ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchiliklar bilan ham ta'minlanadi.

Ushbu qonunlarda axborot texnologiyalar sohasida sodir etilgan huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni va aniq jazolarni nazarda tutuvchi alohida moddalar keltirilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining moddalarida nazarda tutilgan, axborot kommunikasiya texnologiyalari sohasidagi munosabatlarga tahdid solayotgan huquqbuzarliklarning aksariyati, axborot tarmog'idan noqonuniy foydalanish, axborot tarmog'idan foydalanish qoidalari va standartlarini buzish hamda mazkur tarmoqdan foydalangan holda ta'qiqlangan axborotlarni tarqatish bilan bog'liqdir.



Bu o'z navbatida, axborot tarmog'idan foydalanayotgan barcha foydalanuvchilardan bu kabi qilmishlarni sodir etmaslik uchun ehtiyot bo'lishlarini taqozo etadi. Xususan, **O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy**

javobgarlik to'g'risidagi kodeksda (keyingi o'rinlarda – MJtK deb yuritiladi) axborot xavfsizligiga qarshi ma'muriy huquqbuzarliklarga, jumladan, axborotdan foydalanish qoidalarini buzish (MJtK 155-modda), kompyuter tizimidan foydalanish qoidalarini buzish (MJtK 155¹-modda), ommaviy axborot vositalari mahsulotlarini qonunga xilof ravishda tayyorlash va tarqatish (MJtK 218-modda) kiradi. Binobarin, axborot-kommunikatsiya makonida sodir etilishi mumkin ma'muriy huquqbuzarliklar qatoriga, ommaviy axborot vositalarida, telekommunikatsiya tarmoqlarida yoki Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanilgan holda sodir etilgan qilmishlar ham kiradi. Ularga jumladan, MJtKning 189, 189¹, 191-moddalarida ko'zda tutilgan huquqbuzarliklarni keltirish mumkin. Mazkur MJtK 189, 189¹, 191-moddalari bilan ko'zda tutilgan huquqbuzarliklar (pornografiya, qimor, zo'ravonlik, yoshlarni ongiga urush, zo'ravonlik g'oyalarini targ'ib qilish; giyohvandlik vositalarini, psixotrop moddalarni targ'ib qilish fuqarolarni, shu jumladan voyaga yetmagan shaxslarni ularning hayotiga va (yoki) sog'lig'iga yoxud o'zga shaxslarning hayotiga va (yoki) sog'lig'iga tahdid soluvchi g'ayrihuquqiy harakatlar orqali sodir etiladi.

Shuningdek, Internet jahon axborot tarmog'ida noqonuniy kontentni tarqatish ma'muriy huquqbuzurlikni sodir etganlik uchun MJtKning 276-moddasiga muvofiq javobgarlik belgilangan.

Axborot xavfsizligiga qarshi ma'muriy huquqbuzarliklarning ayrimlari uchun qonunchilikda, hattoki bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravarigacha miqdorda jarima solish yoki o'n besh sutkagacha muddatda ma'muriy qamoqqa olish kabi og'ir jazo turlarining qo'llanishi mumkinligi nazarda tutilgan.

Kibermakonda sodir etiladigan huquqbuzarliklarning eng xavflisi, bu axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlardir. Mazkur jinoyatlarning xavfliligi, ularning sodir etilishi natijasida ushbu munosabatlarga jiddiy zarar yetkazishidadir.



Kiberjinoyatchilik — axborotni egallash, uni o'zgartirish, yo'q qilish yoki axborot tizimlari va resurslarini ishdan chiqarish maqsadida kibermakonda dasturiy ta'minot va texnik vositalardan foydalanilgan holda amalga oshiriladigan jinoyatlar yig'indisi.

Ushbu sohada olib borilgan izlanishlar, kiberjinoyatlar asosan fuqarolarning ishonchiga kirib, bank plastik hisob raqamlaridagi mablag‘larni, xalqaro pul o‘tkazmalari orqali o‘zgarar mablag‘larini, xalqaro elektron hamyonlar va kriptovalyuta mablag‘larini, to‘lov agenti bo‘lgan yuridik shaxslar yoki yakka tartibdagi tadbirkorlar hisob raqamlaridagi pul mablag‘larini o‘zlashtirish, internet tarmog‘i yordamida noqonuniy ravishda egallangan fuqarolarning shaxsiy ma‘lumotlarini oshkor qilish bilan qo‘rqitib tovlamachilik qilish, xavfsizlik tizimi yetarli bo‘lmagan tijorat banklarida mavjud serverlar va aloqa kanallarini foydalanib, ulardagi pul mablag‘larini yashirin ravishda talon-toraj qilish usullarda sodir etilayotganligidan dalolat beradi.

Mazkur qilmishlarni sodir etish xususiyatidan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchilikning ayrim moddalariga, mazkur sohada sodir etilishi mumkin bulgan jinoyatlar uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi qo‘shimchalar kiritildi hamda qonun 278¹-278⁷-moddalarni qamrab olgan “XX¹ bob. Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar” yangi bob bilan to‘ldirildi.

Xususan, **O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga kiritilgan “Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar” XX¹ bobida quyidagi jinoyatlar uchun javobgarlik belgilandi:**

JK 278¹-modda. Axborotlashtirish qoidalarini buzish

JK 278²-modda. Kompyuter axborotidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish

JK 278³-modda. Kompyuter tizimidan, shuningdek telekommunikasiya tarmoqlaridan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish uchun maxsus vositalarni o‘tkazish maqsadini ko‘zlab tayyorlash yohud o‘tkazish va tarqatish

JK 278⁴-modda. Kompyuter axborotni modifikasiyalashtirish

JK 278⁵-modda. Kompyuter sabotaji

JK 278⁶-modda. Zarar keltiruvchi dasturlarni yaratish, ishlatish yoki tarqatish

Mazkur jinoyatlar axborot texnologiyalaridan qonuniy, xavfsiz foydalanishni ta‘minlovchi munosabatlarga tajovuz qilinadi.

Jinoiy-huquqiy tushunishda kompyuter axboroti - axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarning predmeti hisoblanadi. Bunday predmetlar Jinoyat kodeksi 278¹, 278², 278⁴ va 278⁶-moddalarining dispozitsiyalarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatilgan (masalan, axborot tizimi, axborot-hisoblash tizimlari, kompyuter axboroti, kompyuter dasturlari).

Boshqa hollarda esa predmetning aniqlanishi jinoyat tarkibi boshqa

elementlarining aniqlanishi bilan bog‘langan (Jinoyat kodeksining 278³ va 278⁵-moddalarini).

Kiberjinoyatlar axborotni egallash, uni o‘zgartirish, yo‘q qilish yoki axborot tizimlari va resurslarini ishdan chiqarish maqsadida, kibermakonda dasturiy ta‘minot va texnik vositalardan foydalanilgan holda sodir etiladi. Masalan, axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar turli EHM, apparat vositalari, periferiya (atrof) qurilmalari va aloqa liniyalaridan foydalanilgan holda sodir etilishi mumkin. Bu, o‘z navbatida, jinoyatning sodir etilish joyi haqidagi masalaning qo‘yilishiga sabab bo‘ladi.

Dunyoning deyarli barcha mamlakatlaridagi vakillarni birlashtirgan jahon axborot tarmog‘i (Internet)ning yaratilishi qilmishni zararli oqibatlar kelib chiqadigan joydan uzoqda sodir etishga ham imkon beradi.

Binobarin, axborot texnologiyalari sohasidagi formal tarkibli (moddiy oqibatsiz) jinoyatlarning sodir etilish joyi — ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilgan davlat hududi, moddiy tarkibli jinoyatning sodir etilish joyi esa oqibatlar yuz bergan (axborot yo‘q qilib yuborilgan, modifikasiyalashtirilgan, to‘siq qo‘yilgan, nusxa ko‘chirilgan) mamlakat hududi hisoblanadi.

Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlari aybning to‘g‘ri yoki egri ko‘rinishidagi qasd shakli bilan tavsiflanadi. Faqatgina bitta jinoyat, ya‘ni axborotlashtirish qoidalarini buzganlik uchun javobgarlikni belgilovchi Jinoyat kodeksi 278¹-moddasidagi jinoyat ham qasddan, ham ehtiyotsizlik tufayli sodir etilishi mumkin.

Qonun chiqaruvchi tomonidan ikkita jinoyat uchun, Jinoyat kodeksi 278³ va 278⁶-moddalarida jinoyat sub‘ektiv tomonining zaruriy belgisi sifatida maqsad belgilangan. Boshqa holatlarda motiv va maqsad jinoyatlarning zaruriy belgisi sifatida ko‘rsatilmagan, lekin ularning belgilanishi jazoni individuallashtirish uchun katta ahamiyat kasb etadi.

Ushbu jinoyatlar g‘arazdan, bezorilik maqsadida, o‘ch olish niyatida, shuningdek siyosiy va boshqa manfaatlar motivida sodir etilishi mumkin.

Mazkur turdagi jinoyatlar ustunlikka intilish, zavq olish xohishi, boshqa jinoyatlarni yashirish kabi maqsadlarda sodir etilishi mumkin.

Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarni sodir etganlik uchun javobgarlikka aqli raso, 16 yoshga to‘lgan, axborotlarni qo‘riqlash majburiyatiga ega yoki kompyuter axborotlariga qonunga xilof ravishda kirgan shaxslar tortiladi.

Binobarin, ushbu sohaga oid munosabatlani himoyasini ta'minlash maqsadida, o'zlashtirish yoki rastarat yo'li bilan talon-toroj qilish (JK 167-modda 3-qism "g"-bandi), firibgarlik (JK 168-modda 2-qism "v"-bandi), o'g'rilik (JK 169-modda 3-qism "b"-bandi) jinoyatlarini nazarda tutuvchi moddalarga "kompyuter texnikasi vositalaridan foydalanib sodir etilgan bo'lsa" degan og'irlashtiruvchi holat kiritildi.

Xususan, JK 168-modda 2-qism "v"-bandida nazarda to'tilgan firibgarlikni, shaxsiy ma'lumotlarni saqlashga beparvoligidan foydalanangan holda Internetdagi maxfiy ma'lumotlardan shaxsiy g'araz manfaat uchun foydalanish, o'zga shaxslar ishonchlarini suiste'mol qilib, ularning bank plastik kartalari haqidagi ma'lumotlarni (kredit karta raqami, PIN kodi) bilib, kartadagi pul mablag'lariga noqonuniy egalik qilish tashkil etadi.

Xulosa o'rnida aytish kerakki, mamlakatimiz qonunchiligida axborot olish, tarqatish hamda undan foydalanish huquqlarning kafolatlanganligi, fuqarolardan mazkur faoliyatni qonun doirasida amalga oshirish lozimligini talab etadi.

Kibermakonda paydo bo'layotgan yangiliklar qatorida, hisob-kitob qilishda qiymatni ifodalovchi vosita - kriptovalyutani keltirish mumkin. Bunday turdagi, qulay virtual valyutaning muomalaga kirib kelishi, kriptovalyuta yordamida terrorizmni moliyalashtirish, firibgarlik, giyohvandlik vositalari sotish jinoyatlarning yangi ko'rinishlarini kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Bu o'z navbatida, qonunchilikni qayta tahlil qilishni va bu kabi jinoyatlar uchun javobgarlikni belgilashni taqozo etadi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Kiber huquqning paydo bo'lish sabablardan birini aniqlang.
2. Kiber huquq bilan tartibga solinadigan munosabatlardan birini aniqlang.
3. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining asosi bo'lgan ma'lumotlarga nima kiradi?
4. Axborot resursini nima tashkil etadi?
5. Provayder deganda kim tushuniladi?
6. Ijtimoiy tarmoqlardagi munosabatlarning huquqiy jihatlari nimada namoyon bo'ladi?
7. Ijtimoiy tarmoqlarni nima tashkil etadi?
8. Kibermakon deganda nima tushuniladi?
9. Kibermakonda nimalarning kiberxavfsizligi ta'minlanadi?
10. Kibertahdid deganda nima tushuniladi?

11. Kiberhimoyaning chora-tadbirlariga nimalar kiradi?
12. Kiberhujum deganda nima tushuniladi?
13. Kiberhujumni qanday harakatlar tashkil etadi?
14. Qaysi davlat organi tomonidan kiberxavfsizlik hodisalari yuzasidan tergov harakatlari amalga oshiriladi?
15. Kiber huquq sohasiga oid xalqaro huquqiy hujjatlar qanday turlari mavjud?
16. Kiber huquq sohasiga oid qanday mintaqaviy kelishuvlarni bilasiz?
17. Virtual makonda sodir etilishi mumkin ma'muriy huquqbuzarliklarni sanab bering.
18. Kiberjinoyatlar orqali qaysi munosabatlarga tajovuz qilinadi?
19. Kiberjinoyatchilik qanday qilmishlarni qamrab oladi?

TAVSIYA ETILADIGAN NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR VA YURIDIK ADABIYOTLAR

Normativ-huquqiy hujjatlar:

- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi/ <https://lex.uz/docs/20596>
- O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi/ <https://lex.uz/docs/111189>
- O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi/ <https://lex.uz/docs/111453>
- O‘zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi/<https://lex.uz/docs/97664>
- O‘zbekiston Respublikasining 2003-yil 11-dekabrda 560–II-son «Axborotlashtirish to'g'risida»gi Qonuni/ <https://lex.uz/docs/83472>
- O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 22-maydagi O‘RQ–385-son «Elektron tijorat to'g'risida»gi Qonuni/ <https://lex.uz/docs/2650293>
- O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 9-dekabrda O‘RQ-395-son "Elektron hukumat to'g'risida"gi Qonuni/ <https://lex.uz/docs/2833860>
- O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 1-noyabrda O‘RQ–578-son «To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida»gi Qonuni/ <https://lex.uz/docs/4575786>
- O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 15-aprelda O‘RQ-764-son “Kiberxavfsizlik to'g'risida”gi Qonuni/ <https://lex.uz/uz/docs/5960604>
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrda «Raqamli O‘zbekiston – 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni/ <https://lex.uz/docs/5030957>
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yildagi 21-fevraldagi 80-son «Maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi to'g'risidagi yagona nizomni tasdiqlash haqida»gi qarori/<https://lex.uz/docs/5870213>
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 22 fevraldagi 86-son “Maxsus elektron tizim orqali ruxsat etish xususiyatiga ega ayrim

hujjatlarni berish tartib-taomillari to‘g‘risidagi yagona nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori/<https://lex.uz/uz/docs/5871129>

Xalqaro-huquqiy hujjatlar:

Конвенция Совета Европы от 23 ноября 2001 года “О компьютерных преступлениях”/https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=30170556&pos=24;-129#pos=24;-129

Соглашение между правительствами государств – членов Шанхайской организации сотрудничества (ШОС) от 16 июня 2009 года “О сотрудничестве в области обеспечения международной информационной безопасности”/ <https://lex.uz/docs/2068478>

Соглашение от 28 сентября 2018 года “О сотрудничестве государств-участников содружества независимых государств в борьбе с преступлениями в сфере информационных технологий”/ <https://lex.uz/docs/4748982>

Yuridik adabiyotlar:

Ахборот хавфсизлиги асослари: Маърузалар курси / физика-математика фанлари номзоди, катта илмий ходим И.М.Каримовнинг умумий тахрири остида. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2013. – 131 б.

Жиноят ҳуқуқи. Махсус қисм: Дарслик. Қайта ишланган ва тўлдирилган иккинчи нашри / Р. Кабулов, А. Отажонов ва бошқ. Масъул муҳаррир Ш.Т. Икрамов. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2016. – Б.803-824.

Кибермаконда содир этилаётган жиноятларга қарши кураш: муаммолар ва ечимлар: Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами (24 феврал 2022 йил) / Масъул муҳаррир: А.А. Иминов. Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2022. – 253 б.

Салаев Н.С., Рўзиёв Р.Н. Кибержиноятчиликка қарши курашишга оид миллий ва халқаро стандартлар. Монография // Масъул муҳаррир: ю.ф.д., проф. Р.А.Зуфаров. – Тошкент: ТДЮУ, 2018. – 139 б/<https://drive.google.com/file/d/1s9aE12c9uM1whNXXvjYFhUaNBEzBro0q/view>

Г.Гулямов, И.Рустамбеков. “Кибер -ҳуқуқ” – янги комплекс ҳуқуқ соҳаси сифатида/Ўзбекистон қонунчилиги таҳлили, (4), 2020. – Б.28-33/https://inlibrary.uz/index.php/uzbek_law_review/article/view/1876

MUNDARIJA:

Kiber huquq tushunchasi va belgilari	3
Kiber huquq munosabatlarining huquqiy ta'minlash	5
Kiber huquq munosabatlarini tartibga soluvchi xalqaro hujjatlar	8
Kiber huquq sohasiga oid mintaqaviy kelishuvlar	11
Kiberxavfsizlik tushunchasi va huquqiy asoslari	18
Kibermakondagi huquqbuzarliklar uchun javobgarlik	20
Nazorat savollari	24
Tavsiya etiladigan normativ-huquqiy hujjatlar va yuridik adabiyotlar	25

Kiber huquq – huquq sohasi sifatida

Risola

Tuzuvchilar:

Shakurov Rafik Ravilyevich
Vohidov Mahkam Mubinovich

Muharrir:

Texnik muharrir:

Sahifalovchi dizayner:

Bosishga ruxsat etildi. 2022.

Nashriyot-hisob tabog'i . Adadi. Buyurtma № .

Bosmaxonasida chop etildi.